

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI



O'zbekiston  
Respublikasi  
Prezidentining virtual  
qabulxonasi orqali **1 ta**  
og'zaki murojaat kelib  
tushgan



Viloyat statistika  
boshqarmasiga 2019 yilning  
yanvar-noyabr oylarida  
jismoniy va yuridik  
shaxslardan **274 ta**  
murojaatlar kelib tushgan



Viloyat statistika  
boshqarmasining  
elektron veb sahifasi  
orqali **1 ta** murojaat  
kelib tushgan



To'g'ridan-to'g'ri kelib  
tushgan yozma  
murojaatlar **215 tani**  
tashkil etgan




Boshqarmaning  
ishonch telefoni orqali  
**3 ta** og'zaki  
murojaatlar kelib  
tushgan



Boshqarma  
rahbariyatining shaxsiy  
va sayyor qabullaridagi  
og'zaki murojaatlar  
**54 tani** tashkil etgan

# MUROJAATLAR: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

**Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:**



**107 tasi (39,1 %)**

**korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga oid masalalar yuzasidan**



**53 tasi (19,3 %)**

**nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan**



**40 tasi (14,6 %)**

**fermer xo'jaliklarining chorva va dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish masalalari yuzasidan**



**24 tasi (8,8 %)**

**tarmoq korxonalarida hisoblangan ish haqiga oid masalalar yuzasidan**




**50 tasi (18,2 %)**

**boshqa masalalar yuzasidan tashkil etgan**




2019 yil yanvar-noyabr holatiga



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi, ya'ni 73 tasi (jamiga nisbatan 26,6%) Farg'ona shahriga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, Marg'ilon shahridan 24 ta (8,8%), Qo'qon shahridan 11 ta (4,0%), Quvasoy shahridan 16 ta (5,9%), Bag'dod tumanidan 7 ta (2,6%), Beshariq tumanidan 2 ta (0,7%), Buvayda tumanidan 5 ta (1,8%), Dang'ara tumanidan 4 ta (1,5%), Uchko'prik tumanidan 10 ta (3,6%), Farg'ona tumanidan 42 ta (15,3%), Furqat tumanidan 2 ta (0,7%), O'zbekiston tumanidan 8 ta (2,9%), Quva tumanidan 13 ta (4,8%), Oltiariq tumanidan 9 ta (3,3%), Qo'shtepa tumanidan 13 ta (4,7%), Yozyovon tumanidan 4 ta (1,5%), Toshloq tumanidan 5 ta (1,8%), Rishton tumanidan 3 ta (1,1 %), So`x tumanidan 2 ta (0,7%) va boshqa hududdan 21 ta (7,7%) murojaatlar kelib tushgan.




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 248 tasiga chora ko'rildi, 25 tasi tushuntirildi, 1 tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.



## Murojaatlar turlari bo'yicha

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 36,9 % (101 ta) jismoniy shaxslar va 63,1 % (173 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan



## Eslatib o'tamiz:



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

### Ishonch telefonlari:

**(71) 230-87-30/ (73) 241-97-99**

**Viloyat statistika boshqarmasi**

**rahbariyatiga bevosita murojaat etish:**

**(71) 230-87-44 / (73) 241-98-24**



Boshqarma veb sayti – [farstat.uz](http://farstat.uz)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi [pm2.gov.uz](http://pm2.gov.uz) orqali murojaat etishingiz mumkin.

Viloyat statistika boshqarmasining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi